


**2020- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, yuridik shaxs bo‘lgan korxonalar  
va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha tahliliy ma‘lumot**  
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2020- yil yanvar oyida viloyatimizda 438 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Natijada, ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 947 ta (24,5 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiy soni 20 070 tani tashkil etgan.






### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 20 070 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 27,2 % savdo, 13,8 % sanoat, 11,7 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da.

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan  
korxonalar va tashkilotlar, birlikda.**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



**Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Termiz shahri (3 991 ta), Denov tumani (2 405 ta), Jarqo'rg'on tumani (1 545 ta) va Termiz tumani (1 418 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (785 ta), Muzrabot (921 ta) hamda Boysun (943 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 19 620 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 781 ta (23,9 %) ga o'sgan.


### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da.**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (3 966 ta), Denov (2 351 ta), Jarqo'rg'on (1 494 ta) va Termiz (1 386 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (770 ta), Muzrabot (903 ta) hamda Boysun (908 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




### **Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020- yil yanvar oyida 438 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019- yilning shu davriga nisbatan 0,6 marta kamdir.


### **2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (86 ta), Qumqo'rg'on (45 ta), Denov va Sho'rchi (44 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Boysun (12 ta), Oltinsoy (13 ta) hamda Uzun (14 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*





Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko‘pi savdo (204 ta), sanoat (64 ta), qurilish (49 ta) va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (42 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (3 ta), axborot va aloqa (7 ta), hamda tashish va saqlash (14 ta) faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.


### **Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

2020- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, 16 017 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar - 6 425 ta, oilaviy korxonalar - 1 553 ta, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar - 7 688 ta, unitar korxonalar - 139 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 24 ta va boshqalar - 188 tani tashkil etgan.

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda.**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 7 822 tani tashkil etib, ulardan 7 688 tasi yoki 98,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 300 taga yoki 42,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar oyida viloyatimizda 200 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga kamdir.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.

	01.02.2020- y.		2020- y. yanvar oyida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>7 822</b>	<b>7 688</b>	<b>200</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	863	837	29
Sanoat	1 251	1 231	26
Qurilish	1 384	1 368	36
Savdo	2 401	2 370	75
Tashish va saqlash	593	580	11
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	307	300	3
Axborot va aloqa	104	103	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	94	91	x
Boshqa turlari	825	808	17

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko‘p jamidagi ulushi savdo 30,8 %, qurilish 17,8 %, sanoat 16,0 % va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 10,9 % ga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 1,2 %, axborot va aloqa 1,4 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 3,9 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 7,5 % ga to‘g‘ri kelgan.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo‘yicha soni, birlikda.**




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 902 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 29,4 % ga oshgan.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>15 902</b>	<b>872</b>	<b>15 030</b>
Termiz sh.	3 440	225	3 215
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	524	29	495
Angor	784	41	743
Boysun	719	24	695
Muzrabot	703	20	683
Denov	1 935	145	1 790
Jarqo'rg'on	1 223	64	1 159
Qumqo'rg'on	987	51	936
Qiziriq	846	39	807
Sariosiyo	776	55	721
Termiz	1 217	52	1 165
Uzun	784	39	745
Sherobod	919	41	878
Sho'rchi	1 045	47	998

**2020- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, % da.**  
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya‘ni 3 440 tasi (21,6 %) Termiz shahri, 1 935 tasi (12,2 %) Denov, 1 223 tasi (7,7 %) Jarqo‘rg‘on hamda 1 217 tasi (7,7 %) Termiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 15 902 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5 361 ta (33,7 %) - savdo, 2 683 ta (16,9 %) - sanoat, 2 302 ta (14,5 %) - qurilish, 1 435 ta (9,0 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1 430 ta (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 743 ta (4,7 %) - tashish va saqlash, 265 ta (1,6 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 241 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1442 tasi (9,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da.**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



2020- yil yanvar oyida 428 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 288 taga kamdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (83 ta), Qumqo‘rg‘on tumani (44 ta), Denov va Sho‘rchi tumanlarida (42 tadan) hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Oltinsoy (11 ta), Boysun (12 ta) hamda Uzun (14 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 203 ta, sanoat 64 ta, qurilish 49 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 42 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 2 ta, axborot va aloqa 7 ta hamda tashish va saqlashda 14 ta tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 1 586 tani tashkil etib, ulardan 1 553 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 197,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

#### Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot, birlikda.


	01.02.2020- y.		2020- y. yanvar oyi
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 586</b>	<b>1 553</b>	<b>118</b>
Termiz sh.	94	94	4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	86	86	4
Angor	123	122	3
Boysun	18	16	3
Muzrabot	53	53	4
Denov	289	277	10
Jarqo'rg'on	187	180	6
Qumqo'rg'on	78	78	19
Qiziriq	79	79	4
Sariosiyo	78	78	19
Termiz	85	84	5
Uzun	29	27	x
Sherobod	127	127	20
Sho'rchi	260	252	17



**Oilaviy korxonalar soni, birlikda.**




**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
tumanlar kesimida soni, birlikda.**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,1 % yoki 468 tasi savdo, 26,9 % yoki 418 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,4 % yoki 394 tasi sanoat, 10,7 % yoki 166 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 25 tasi qurilish, 0,9 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,5 % yoki 54 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida, eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda.**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>118</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	4	3,4
Oltinsoy	4	3,4
Angor	3	2,5
Boysun	3	2,5
Muzrabot	4	3,4
Denov	10	8,5
Jarqo'rg'on	6	5,1
Qumqo'rg'on	19	16,1
Qiziriq	4	3,4
Sariosiyo	19	16,1
Termiz	5	4,2
Uzun	x	x
Sherobod	20	17,0
Sho'rchi	17	14,4

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Sherobod (20 ta) Sariosiyo va Qumqo'rg'on (19 tadan) va Sho'rchi (17 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Angor va Boysun (3 tadan) hamda Termiz shahri, Oltinsoy, Muzrabot, Qiziriq (4 tadan) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 53,4 % yoki 63 tasi savdo, 22,0 % yoki 26 tasi sanoat, 10,1 % yoki 12 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,1 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 1 ta qurilish, 0,9 % yoki 1 tasi axborot va aloqa shuningdek, 1,7 % yoki 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 367 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 179 taga yoki 195,2 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (172 ta), Termiz (39 ta) Uzun (30 ta), Angor (19 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari Oltinsoy (5 ta), Boysun (7 ta) hamda Qumqo‘rg‘on (9 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 121 tasi qo‘shma, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda.**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, % da.**



**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.**


	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>367</b>	<b>121</b>	<b>246</b>
Termiz shahri	172	28	144
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	19	4	15
Boysun	7	6	1
Muzrabot	12	5	7
Denov	16	8	8
Jarqo‘rg‘on	10	6	4
Qumqo‘rg‘on	9	6	3
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	15	9	6
Termiz	39	15	24
Uzun	30	16	14
Sherobod	11	5	6
Sho‘rchi	12	8	4

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 14 tani tashkil qilgan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Termiz shahri (8 ta yoki jumladan ulushi 57,1 %), Shoʻrchi (2 ta yoki 14,3 %) tumanlari hissalari toʻgʻri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Angor, Boysun, Uzun va Sherobod (1 tadan yoki 7,1 % dan ) hissalari toʻgʻri keladi.

### 2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda.




Afgʻoniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 9 ta, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Fransiya Respublikasi va Buyuk Britaniya - 1 tadan yangi korxonalar roʻyxatdan oʻtgan. Shuningdek, 2020- yil yanvar oyida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qoʻshma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, asosan savdo (7 ta), sanoat (3 ta) faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri keladi. Eng kamlari esa, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi (2 ta) hamda qurilishda (2 ta) tashkil etilgan.



**2020- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.**



**Surxondaryo viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda.**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>77</b>	<b>45</b>	<b>32</b>
Rossiya Federatsiyasi	37	23	14
Tojikiston Respublikasi	21	12	9
Qozog'iston Respublikasi	10	6	4
Turkmaniston Respublikasi	6	2	4
Gruziya Respublikasi	3	2	1

Viloyatda MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 10,1 %, Tojikiston Respublikasi 5,7 %, Qozog'iston Respublikasi 2,7 %, Turkmaniston Respublikasi 1,6 %, Gruziya Respublikasida 0,8 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel. (71) 230-85-90**